

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

**"O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish asoslari"
kafedrasi**

**"Axloqshunoslik" (Etika), "Nafosatshunoslik"
(Estetika),
"Mantiq" (Logika) fanlaridan
amaliy mashg`ulotlar o`tkazish yuzasidan**

USLUBIY QO`LLANMA

JIZZAX - 2006

UDK 1

Tuzuvchilar: dots. Qulmatov P.
kat.o`qit. Uzoqov B.

Taqrizchi: dots. O`rolov Q.

Muharrir: dots. Soatova D.

Mazkur uslubiy qo`llanma "Axloqshunoslik", "Nafosatshunoslik", "Mantiq" fanlarining o`quv dasturi asosida tayyorlandi va "O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish asoslari" kafedrasining 30 noyabrdagi ilmiy uslubiy kengashi yig`ilishida muhokamadan o`tib tasdiqlandi.

Bayonnoma №3 2006 yil.

"Muhandislik iqtisodiyoti" fakulteti ilmiy uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Bayonnoma №6 29 dekabr 2006 yil.

UDK1+ 16 +42+342+9(S)

Kirish

Axloqshunoslik hamma davrlarda ham yuksak ahamiyat kasb etib kelgan fandır. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin yosh avlodni axloqiy jihatdan etuk, barkamol qilib tarbiyalash maqsadida axloqshunoslik yangi jamiyatda tobora yuksak mavqega chiqib bormoqda. Chunki axloq - ma'naviyatning o`zagi, insof va adolat tuyg`usidir. Mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar, tarixiy xotira an'ana va qadriyatlarning tiklanishi munosabati bilan estetika fani oldida ham yangi vazifalar paydo bo`lmoqda. Estetika O`zbekistonning mustaqillik sharoitida o`quv-tarbiya vazifalaridan kelib chiqib o`z masalalarini bayon qilmoqda.

Mantiq fani talabalarni to`g`ri fikrlashning qonun qoidolari va mantiqiy shakllari bilan tanishtirish asosida, ularda yangi turmush va tafakkur tarzini qaror toptirishga xizmat qiladigan fandır.

"Axloqshunoslik", "Nafosatshunoslik", "Mantiq" fanlari bo`yicha mazkur uslubiy qo`llanma talabalarning seminar darslarini o`zlashtirishga yaqindan yordam berib, ularda odob, axloq, go`zallik va nafosat hamda to`g`ri fikrlash qobiliyatlarining o`sishiga yordam beradi degan umiddamiz.

Mazkur fanlardan tuzilgan uslubiy qo`llanma 18 ta mavzudan iboratdir. Ushbu qo`llanmani kelajakda to`ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruratini hisobga olib sizlardan fikr va mulohazalaringizni kutamiz.

Mualliflar.

Axloqshunoslik (Etika), Nafosatshunoslik (Estetika) va Mantiq (Logika) fanlaridan amaliy mashg'ulotlar mavzulari

№	Mavzuning nomi	Amaliy mashg'ulot soati
1.	Axloqshunoslikning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari	2
2.	Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari (qadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi davr)	2
3.	Turkiston ma'rifatchi - jadidlarining axloqiy qarashlari	2
4.	Axloqning kelib chiqishi, ixtiyor erkinligi va axloq tuzilmasi	2
5.	Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari	2
6.	Axloqiy madaniyat va kasbiy odob. Shaxs axloqiy tarbiyasi	2
	Jami:	12
Nafosatshunoslik (Estetika)		
1.	Estetikaning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari	2
2.	Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari (qadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi davr)	2
3.	Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining estetik qarashlari. Estetik ong va estetik faoliyat	2
4.	Estetikaning asosiy tushunchalari. San'atning kelib chiqishi va taraqqiyoti	2
5.	San'at turlari va ularning o'zaro aloqadorligi	2
6.	Badiiy ijod jarayoni, badiiy asarni estetik idrok etish va estetik tarbiya	2
	Jami:	12
Mantiq (Logika)		
1.	Mantiq ilmining predmeti va ahamiyati. Mantiq fani rivojlanishining asosiy bosqichlari	2
2.	Formal mantiqning asosiy qonunlari (tamoyillari)	2
3.	Tushuncha	2
4.	Hukm (mulohaza)	2

5.	Xulosa chiqarish	2
6.	Dalillashning mantiqiy asoslari. Muammo. Faraz. Nazariya.	2
	Jami:	12
	Hammasi:	36

Axloqshunoslik (etika) fanidan amaliy mashg`ulot

1 - amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: Axloqshunoslikning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari

Reja:

1. Axloqshunoslik - axloqning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o`rganadigan fan sifatida.
2. Axloqshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.
3. Milliy mustaqillikni mustahkamlash jarayonida axloqshunoslikning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o`rni.

1. Axloq - so`zi arabchadan olingan bo`lib, "xulq" so`zining ko`plik shakli ekanligi. "Axloq" iborasining ikki xil ma'noga ega ekanligi. Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, axloqiy munosabatlarni o`rganadigan fan ekanligi. "Odob", "Xulq", "Axloq" so`zlarining mohiyati. Axloqshunoslik axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etishi kabi iboralar bilan savol yoritiladi.

2. Axloqshunoslik boshqa ijtimoiy fanlar bilan o`zaro aloqada ekanligi. Jumladan, estetika, dinshunoslik, huquqshunoslik, pedagogika, ruhshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, ekologiya, milliy istiqlol g`oyasi fanlari bilan uzviy aloqadorlikda ekanligidan kelib chiqib savol yoritiladi.

3. Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan axloqshunoslik yangi jamiyatda yuksak mavqeni egallashi. Axloqshunoslikda milliy g`oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish. Axloqshunoslikning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek vazifasi borligi ekanligidan kelib chiqib savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Axloqshunoslik qachon paydo bo`lgan? Axloqshunoslik qanday nomlar bilan atalgan? Odob, xulq, axloq deganda nima tushunasiz? Milliy istiqlol g`oyasi bilan axloqning munosabati haqida nima deya olasiz?

2 - amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari

(qadimgi dunyo, o`rta asrlar, yangi davr)

Reja:

1. Qadimgi sharq axloqshunosligi. "Avesto" Turon va Eron xalqlari axloqiy qonun-qoidalarining majmui sifatida.
2. Qadimgi Hind, Xitoy, Yunoniston va Rumoda axloqshunoslik.
3. O`rta asrlar musulmon Sharqi axloqshunosligining asosiy yo`nalishlari.
4. Mashhur pandnomalar va ularning axloqshunoslik tarixida tutgan o`rni.
5. Ovropa o`rta asrlar, uyg`onish davri va yangi davr axloqshunosligi.

1.Qadimgi Turonzamin va Eronzamindagi axloqiy tafakkur taraqqiyotining zardo`shtiylik dini bilan bog`liq ekanligi. Avesto kitobidagi axloqiy fazilatlar. Ahura-Mazda, Axriman tushunchalarining mohiyati. "Avesto" da inson oliy jonzot tarzida talqin etilishi kabi iboralar bilan savol mohiyati ochiladi.

2.Qadimgi Hindiston axloqiy tafakkurining alohida o`rni, undagi Vedachilik, buddhachilik, daochilik ta'limotlari. Xitoy axloqshunosligidagi Konfutsiychilik ta'limoti. Qadimgi Yunonistonda axloqshunoslikning yangi bosqichga ko`tarilishi. Yunon axloqshunosligidagi buyuk faylasuflar Suqrot, Aflotun, Arastu, Epikur kabi mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Qadimgi Rumoda axloqshunosligida Lukretsiy Kar, Anney Seneka, Epiktet kabi mutafakkirlarining axloqiy ta'limotlaridan kelib chiqib savol mazmuni yoritiladi.

3.O`rta asrlar musulmon Sharqi axloqshunosligining o`ziga xos xususiyatlari. Sharqning buyuk allomalari Farobiy Ar-Roziy, Ibn Sino, Ibn Rushd va tasavvufiy axloqiy ta'limotlardan kelib chiqib savolni yoritish mumkin.

4.O`rta asrlar musulmon Sharqi mintaqasi tafakkurida axloqning mohiyatini tushuntiruvchi mashhur pandnomalarning o`ziga xos o`rin egallaganligi. XI asrdagi ikki buyuk pandnoma, ya'ni "Qutadg`u bilig" hamda "Qobusnoma" larning axloqiy jihatlari. Sharqona pandnomalarning eng mashhuri hisoblangan. "Guliston" asaridagi axloqiy ta'limotlar. "Makorim ul-axloq" va "Zarbulmasal" asarlaridagi axloqiy jihatlardan kelib chiqib savol yoritiladi.

5.O`rta asrlar Ovropa axloqshunosligining yirik vakillari Avreliy Avgustin, Lorentso Valla, Nikkolo Makiavellilarning axloqiy ta'limotlari. Yangi davr axloqshunosligida ratsional qarashlarni himoya qilgan Spinoza ta'limotlaridan kelib chiqib savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

"Avesto" qanday kitob? U qachon va qanday yozilgan? Vedalar deganda nimani tushunasiz? Xitoyda yana qanday ta'limotlar bor? Yunoniston

faylasuflari haqida fikrlaringizni ayting? Sharq mutafakkirlaridan kimlarning asarlarini bilasiz? Shulardan qaysilari axloqqa oid? Ovroq mutafakkirlarining axloqqa oid asarlarini bilasizmi?

3 - amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining axloqiy qarashlari

Reja:

1. Turkiston jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning milliy ozodlik mafkurasiga asoslanganligi.
2. Jadid ma'rifatchilarining Vatan va millat fidoyilari sifatidagi ahamiyati.

1.Turkistonda vujudga kelgan jadidlar harakati. Ma'rifatchilikning uch soha orqali taraqqiy topishi. Axloqiy g`oyalarning badiiy va didaktik shakllarda o`z aksini topishi. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Ularning asarlaridagi axloqiy ta'limotlardan kelib chiqib savol yoritiladi.

2.Jadidchilarning Vatan uchun qilgan fidoiyligi. Jadid ma'rifatchilarining g`oyalarni yangilash borasidagi harakatlari. Axloq muammolari jadid matbuotidan o`rin olganligi. Jadid matbuotining ozodlikni, Vatanni sevishni, har tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fuqarosini tarbiyalashni maqsad qilib qo`yganligi kabi so`z va iboralardan foydalanib savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Jadidchilar deb kimni aytamiz? Ularning g`oyalari nimaga qaratilgan? Jadid matbuoti nima? Ularning yoshlarni tarbiyalashdagi fikrlari qanday?

4 - amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: Axloqning kelib chiqishi, ixtiyor erkinligi va axloq tuzilmasi

Reja:

1. Axloqning kelib chiqishi, ixtiyor erkinligi va axloq tuzilmasi.
2. Axloqshunoslikning asosiy mezoniy tushunchalari.
3. Axloqiy tamoyillar va me'yorlar hamda ularning shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.

1.Qadimgi ona sayyoramizdagi hayotning uch olamdan iboratligi. Insondagi ixtiyor erkinligi. Dastlabki axloqiy qonun-qoidalarining tanlovni ro`yobga chiqarishga xizmat qilishi. Axloq tuzilmasi kabi so`z va iboralar yordamida savol yoritiladi.

2. Axloqshunoslik tushunchalari haqida umumiy ma'lumot muhabbat va nafrat. Muhabbat bosh mezoniy tushuncha sifatidagi o'zining hissiga ega ekanligi. Nafrat va rashk tushunchalari. Ezgulik axloqshunoslikdagi eng muhim kategoriya ekanligi. Yovuzlikning mohiyati. Axshilik va yomonlik tushunchalari. Adolat tushunchasi. Burchga sadoqat yoki xiyonat, vijdon, nomus so'zlarining mohiyati. Baxt va uning hayotning ma'nosi ekanligi kabi iboralardan foydalaniladi.

3. Axloqiy tamoyillarning axloqiy ong shakllari ekanligi. Axloqiy tamoyillarning eng qadimgisi insonparvarlik ekanligi. Erkparvarlik insonning oliy huquqi ekanligi. Vatanparvarlik mashhur tamoyil ekanligi. Millatparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik, ziyolilik, tinchlikparvarlik kabi so'zlarning mohiyatini ochish orqali savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Ixtiyor erkinligi deganda nima tushunasiz? Kategoriyalar nima uchun qo'llaniladi? Baxt deganda nimani tushunasiz? Kim baxtli inson hisoblanadi? Mehmondo'st deganda qanday odamlar tushuniladi? Mehnat insonni ulug'laydi deb nima uchun aytilgan?

5 - amaliy mashg'ulot (2 soat)

Mavzu: Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy savollari

Reja:

1. Oila ma'naviy-ijtimoiy muhit sifatida, uning tarbiya maskani ekanligi.
2. Fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy mohiyati.
3. Davlatning o'z ichida oila va fuqarolik jamiyatini taqozo etuvchi, axloqlikni yuksaltiradigan institut sifatidagi ahamiyati.

1. Oila fuqarolik jamiyatining, davlatning hujayrasi ekanligi. Oilaning asosi bo'lmish nikoh haqida. Nikoh va muhabbat o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar. Oilaning o'z mulkiga egaligi. Oilada balalar tarbiyasi. Oilaning buzilishi haqida. Nikohning buzilishi kabi tushuncha va iboralardan foydalanib savol mazmuni ochiladi.

2. Dastlabki axloq maskani bo'lmish oilalar yig'indisi fuqarolik jamiyatini tashkil etishligi. Fuqarolik jamiyati oila bilan davlat o'rtasidagi daraja ekanligi. Fuqarolik jamiyati turli tabaqalardan tashkil topganligi. Fuqarolik jamiyatining yashash sharti erkinlik ekanligi. Mahalla tarbiya maskani ekanligi. Davlat tushunchasi. Davlatning asosi siyosiy tuzum ekanligi. Davlatning mavjud bo'lishi suverenitetga bog'liq ekanligi. Davlatning axloqiy tarbiyaga katta ahamiyat berayotganligi kabi iboralar orqali savol yoritiladi.

3. Demokratik davlatning asosida yuksak axloqiylikning yotishi. Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini axloqiy madaniyat belgilashligi. Maktabgacha bo'lgan tashkilotlarda, maktablarda, oli o'quv yurtlarida ta'lim va tarbiyaning qo'shib olib borilishi kabi so'z va iboralar bilan savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Oila qanday dargoh? Jamiyat nima? Davlat deganda nima tushuniladi? Nikoh nima? Nikoh qanday tuziladi? Oilaning buzilishiga nimalar asosiy sabab bo'ladi? Nima uchun oila buziladi?

6 - amaliy mashg'ulot (2 soat)

Mavzu: Axloqiy madaniyat va kasbiy odob.

Shaxs axloqiy tarbiyasi

Reja:

1. Axloqiy madaniyat - axloqiy tafakkur madaniyati tuzilmasi sifatida.
2. Kasbiy odob va uning axloqiy madaniyat tuzilmasidagi o'rni.
3. Axloqiy tarbiya va uning insonni shaxs sifatida kamolotga etkazuvchi uzluksiz jarayon ekanligi.

1. Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini fuqarolarning axloqiy madaniyati belgilashligi. Axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining unsurlaridan iborat bo'lgan tuzilma ekanligi. Muomala odobi axloqiy madaniyatning muhim bo'lagi ekanligi. Muomala odobining so'z va nutq vositalaridan ifoda etilishi. Nigoh, qarash, muomala odobining ko'zgusi sifatida. Etiket tushunchasi kabi iboralar yordamida savol yoritiladi.

2. Axloqiy madaniyatning kasbiy odob orqali ko'zga tashlanishi. Kasbiy odob axloqiy madaniyatning yuksak shakllaridan biri ekanligi. Insonlarning kasbiy burch mas'uliyati. Barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta'sir doirasi bir xil emasligi. Kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida ma'naviy hodisa sifatida baholanishi lozimligi kabi so'zlar, fikrlar yordamida savol yoritiladi.

3. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqligi. Axloqiy tarbiyaning muhim masalalari. Axloqiy tarbiya insonni komillikka etkazuvchi yo'l ekanligi. Axloqiy tarbiyaning vositalari. Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan hamkorlikda olib borilishi kabi iboralar, fikrlar bu savolni yoritishga yordam beradi.

Munozara uchun savollar:

Axloq soʻzining maʼnosi? Madaniyat deganda nima tushunasiz? Odob nima? Kasbim faxrim degan soʻzning maʼnosini tushuntirib bering? Tarbiya deganda nima tushunasiz?

Axloqshunoslik fanidan asosiy adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2001.
2. Karimov I.A. Oʻzbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisidiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., 1995.
3. Karimov I.A. halollik va fodoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni boʻlsin. E., 1994.
4. Karimov I.A. donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor" gazetasi, 2000 yil 8 iyun.
5. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. T., 1992.
6. Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 2000.
7. Sher A. Axloqshunoslik. T., 2000.
8. Аристотель. Никомахова этика; // Большая этика. // Аристотель. Сочинения в 4-х томах, т-4. М., 1983.
9. Словарь по этике. М., 1989.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

1. "Avesto". Asha Alqovi. "Sogʻlom avlod uchun jurnali", 1996 yil, 5-6 sonlar.
2. Jomiy. Bahoriston. T., 1997.
3. Jumaboev Y. Oʻzbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T., 1998.
4. Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-Mufrad. (Adab durdonalari). T., 1990.
5. Kaykovus. Qobusnoma. T., 1994.
6. Komilov N. Komil inson - millat kelajagi. T., 2001.
7. Navoiy. Mahbub ul-qulub. // Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 20 tomlik, 14-tom, T., 1998.
8. Odob boʻstoni va axloq gulistoni. T., 1994.
9. Sadʼiy. Guliston. T., 1968.
10. Fitrat. Oila. T., 1999.
11. Forobiy. Fozil shahar odamlari. T., 1993.
12. Sher A. Ibrat koʻzi "Sogʻlom avlod uchun" jurnali, 1996 yil 7-8, 9-10 sonlar.
13. Sher A. Tasavvuf, Gʻazzoliy va goʻzalik falsafasi. "Sogʻlom avlod uchun" jurnali, 2002 yil, 2-son.
14. Gʻaybulloh as-Salom, Saydi Umir. Tolibnoma. T., 1996.
15. Ар-Рази Абу Бакр. Духовная медицина. Душанбе, 1990.
16. Газали Абу Хамид. Воскрешение наук о вере. М., 1980.
17. Гегель Г. Философия права. М., 1990.

18. Кант И. Из лекции по этике. // Этическая мысль 1988,1990. М., 1988,1990.
19. Ницше Ф. По ту сторону добра и зла; К генеалогии морали // Ф.Ницше. сочинения 2-х томах, т-2. М., 1990.
20. Фромм Э. Душа человека. М., 1992.

Estetika (Nafosatshunoslik) fanidan amaliy mashg`ulot

1 - amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: Estetikaning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari

Reja:

1. Estetika – nafosatning mohiyatini o`rganuvchi qadimiy fan.
2. Estetikaning falsafiy mohiyati.
3. Estetikaning boshqa zamonaviy fanlar bilan aloqasi.

1."Estetika" atamasining mohiyati, nafosat va go`zallik dunyosining rang-barang ekanligi, inson moddiy go`zallik dunyosini bunyod etishi. Estetika bu nafosat olami, san'at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his, tuyg`u, sezish, idrok qilish vositalari orqali o`rganadigan fan ekanligi. Estetikaning borliqni estetik o`zlashtirish mohiyati va qonuniyatlari haqidagi fan sifatidagi o`ziga xos fazilatlari mavjud ekanliklaridan kelib chiqib savol yoritiladi.

2.Estetikaning falsafiy bilimlar tizimidagi o`rni. Estetika falsafiy bo`lib, uning nazariy va uslubiy asoslarini falsafiy tafakkur nazariyasi va tarixi tashkil qilishi. Estetikaning mustaqil bilim sohasini tashkil etgan holda falsafaning ravnaq topib borishiga o`z hissasini qo`shayotganligi haqidagi fikrlardan kelib chiqib savol yoritiladi.

3.Estetika mazmunan sotsiologiya fani bilan aloqadorligi va uch tarkibiy qism orqali bog`langanligi. Estetika fanining ruhshunoslik (psixologiya) bilan bog`liqligi, estetika u yoki bu darajada insonning ruhiy, his-tuyg`u holatini ifodalashligi. Estetikaning barcha ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog`liqlikda ekanliklaridan kelib chiqib savol tushuntiriladi.

Munozara uchun savollar:

Estetika atamasi qaysi so`zdan olingan? Estetika deganda nima tushunasiz? Estetikaning fanlar tizimidagi o`rni haqida gapirib bering? Estetikaning nima uchun o`rganamiz?

2 - amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari

(qadimgi dunyo, o`rta asrlar, yangi davr)

Reja:

1. Estetik tafakkurning paydo bo`lishi.

2. Yunoniston faylasuflari Suqrot va Aflotunning estetik qarashlari.
3. O`rta asrlar musulmon Sharqi estetikasida mashshoyunlik yo`nalishining qaror topishi.
4. Amir Temur va temuriylar davri.
5. Ovro`po ma'rifatparvarlari estetikasi (Byork Shyum Didro).

1.O`tmishda estetik qarashlar, g`oyalar ta'limot va nazariyalarning falsafa fani bag`rida paydo bo`lganligi. Nafosat mohiyati, estetik ong va estetik faoliyat tabiati, san'atning voqeilikka munosabati masalalaridagi turli qarashlarning paydo bo`lganligi. Estetik g`oyalarning dastlab qadimgi Sharq mamlakatlarida paydo bo`lganligidan kelib chiqib savol yoritiladi.

2.Qadimgi Yunon faylasuflarining estetik qarashlari haqida. Suqrot ta'limotidagi go`zallik va ezgulik birligining etakchi g`oya sifatida bayon qilinganligi. Aflotun qarashlaridagi estetika va go`zallik falsafasi, uning fikricha nafosat manbaini g`oyalar tashkil etganligi. Aflotunning san'atga oid qarashlari. Uning qarashlarida estetik tarbiyaning o`rni kabi iboralar orqali savol yoritiladi.

3.Sharq ilk Uyg`onish davri omillarining estetika haqidagi ta'limotlari. Abu Nasr Farobiyning estetika sohasidagi asarlari. Farobiyning inson qobiliyati haqidagi fikri, tug`ma va keyin erishilgan qobiliyati haqida. Farobiy insonning o`z-o`zini tarbiyalashida nazm va musiqa san'atining o`rni haqidagi fikrlari. Abu Ali ibn Sino estetik qarashlarida estetika bilan axloq muammolarining bir-biri bilan bog`liqligi haqidagi fikrlari. Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari. Ibn Sinoning til, nutq masalalari haqidagi fikrlari. Abu Rayhon Beruniyning estetik qarashlari. Uning nafosat haqidagi qarashlarida voqea-hodisalarning o`zaro bog`liqligi va aloqadorlik manbai hamohanglik va uyg`unlikdir deb ko`rsatganligi kabi fikr va mulohazalar asosida yoritiladi.

4.Movarounnahr madaniyati, estetik tafakkuri XIV - XV asrlarda jadal taraqqiy etganligi. A.Temur boshchiligidagi yirik davlatning tashkil topganligi. A.navoiyning estetik qarashlari. Navoiy go`zallikni, nafis san'atni yuksak qadrlab, uni inson ma'naviy olami, kamoli uchun kalit ekanligini ta'kidlaganligi. Navoiyning adabiy - estetik qarashlari so`z san'ati va estetik tafakkur taraqqiyotida muhim o`rin tutishligi haqidagi iboralardan foydalaniladi.

5.Ovrupe ma'rifatparvarlari Byork, Hyum, Didro kabi murafakkirlarining estetik qarashlari.Ovro`po uyg`onish davri estetikasining muhim xususiyati, uning mohiyati, mazmuni, yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug`orilgan iboralardan kelib chiqib savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Estetik tafakkurning paydo bo'lishidagi dastlabki fikrlar qanday talqin qilingan? Sharq mutafakkirlaridan kimlarning fikrlari estetika sohasida muhim o'rin tutadi? Estetik fikrlar dastlab qaysi davlatlarda paydo bo'lgan? Estetika tarixiga oid fikrlarga izoh bering?

3 - amaliy mashg'ulot (2 soat)

Mavzu: Turkiston ma'rifatchi jadidlarining estetik qarashlari.

Estetik ong va estetik faoliyat

Reja:

1. Turkistonda jadidlar ma'rifiy-ijtimoiy harakatining vujudga kelishi.
2. Furqat va Anbar otinning estetik qarashlari.
3. Estetik faoliyat mehnatning o'ziga xos turi sifatida.

1. G'oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshirgan faoliyatli ziyolilarning vujudga kelishi. Ma'rifatchilikning uch soha orqali amalga oshirilishi. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlaridagi g'oyalarning badiiy shakllarda o'z aksini topganligi kabi iboralar bilan savol mohiyati yoritiladi.

2. O'zbek mumtoz shoiri Furqatning estetik qarashlaridagi o'ziga xos xususiyatlari. Uning asarlaridagi estetik fikrlarning ahamiyati. Turkiston ma'rifatparvarlarining yirik namoyondasi Anbar otinning estetik qarashlari. Uning asarlarida estetik fikrlarning estetika fanini rivojlantirishdagi ahamiyati haqidagi iboralar bu savolning mazmunini ochib beradi.

3. Estetik faoliyat tushunchasi. Estetik faoliyat asosini insonning muayyan talab va ehtiyojlari tashkil etishligi. Estetik faoliyatning asosiy xususiyatlari estetik ehtiyojlar bilan belgilanishi. Estetik faoliyat moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini qamrab olishligi. Mehnatning estetik jihatdan to'laqonli ekanligi. Estetik faoliyat ilmiy ijodning ham estetik tomonini tashkil etishligi haqidagi fikrlar orqali savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Jadidlar deganda kimlar ko'z oldingizda namoyon bo'ladi? Ma'rifatchi jadidlar haqida fikrlaringizni guruhdoshlar bilan o'rtoqlashing? Estetik faoliyat qanday mehnat natijasida vujudga keladi?

4 - amaliy mashg'ulot (2 soat)

Mavzu: Estetikaning asosiy tushunchalari. San'atning kelib chiqishi va taraqqiyoti

Reja:

1. Estetik mezoniy tushunchalar estetik bilishning muhim omili sifatida.
2. Go`zallik tushunchasi.
3. Ulug`vorlik tushunchasi.
4. Fojiaiylik tushunchasi.
5. Kulgililik mezoniy tushunchasi.
6. San'atning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati.

1. Kategoriya so`zining ma'nosi. Estetika falsafiy bilimlar tizimida nazariy fan sifatida o`zining tushunchalarini ishlab chiqqanligi. Estetik tushunchalarning umumiy xarakteristikasi kabi iboralardan foydalaniladi.

2. Go`zallik - estetikaning asosiy tushunchasi ekanligi. Go`zallik nafosat olamining mag`zi, asosiy belgisi, bosh xossasi, asosiy mohiyatini tashkil qilishligi. Go`zallikning estetik qadriyat ekanligi. Aflotun go`zallik to`g`risidagi falsafiy ta'limotning asoschisi sifatida. Arastu ta'limotlarida go`zallik tushunchalari. San'atdagi go`zallik kabi iboralar bilan savol mohiyati yoritiladi.

3. Ulug`vorlik estetik tushuncha sifatida. Qadimgi estetikada ulug`vorlik iborasini nutqning alohida uslubini tavsiflash uchun ishlatilgan atama ekanligi. E.Byork, Gegel ta'limotlarida ulug`vorlik masalalari. Qahramonlikda ulug`vorlikka xos estetik va axloqiy sifatning namoyon bo`lishligi. Ulug`vorlikning san'atda ifodalanishi kabi so`zlar orqali savol yoritiladi.

4. Fojialilik tushunchasi yordamida hayot ziddiyatlari va to`qnashuvlarining baholanishi. Fojialilik ijtimoiy xususiyatga molik tushuncha sifatida. San'atda fojialilik. Har qanday fojia zaminida alohida fojiali to`qnashuv yotishligi. Fojining yangi ravnaqi Ovrupo Uyg`onish davrida boshlanganligi. Fojia san'ati insoniyatning doimiy hamrohi, umr yo`ldoshidir degan ilmiy taxminlar orqali savol yoritiladi.

5. Insonning dunyo voqea-hodisalariga munosabatlaridan biri kulgililik tushunchasi ekanligi. Voqelikdagi kulgililik. Kulgililik tushunchasi talqini o`zining aniq, oqil mazmuniga ega bo`lgan tomonlarni ochib berishi. Kulgililik boshqa estetik hodisalar singari tashqi va ichki tomonlarni o`zida birlashtirishligi. Kulgi katta ijtimoiy ma'noga ega ekanligi. Komediya eng oddiy kulgi bilan emas, balki komik matn bilan bog`liq ekanligi. masxara, san'atdagi kulgi turlari kabi so`z va iboralar orqali savol yoritiladi.

6. San'at - keng ma'noli tushuncha ekanligi. San'atning insoniyat taraqqiyoti bilan bog`liq holda rivojlanib kelayotganligi. San'at kurtaklarining murabbiy-tarbiyachi vazifalarini bajarganligi. San'at tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib kelganligi. San'atning ijtimoiy ong shakli ekanligi. San'atning taraqqiyoti yoki tanazzuli. Uning u yoki bu turi ko`rinishining yorqin ifoda topishi. Vorisiylik tushunchasi kabi iboralar mazkur savolni yoritishga yordam beradi.

Munozara uchun savollar:

Go`zallik nima? Nima go`zal? Qahramonlik deganda nima tushunasiz? Fojiaaviylik va kulgililikka misollar keltiring? Komediya nima? San'at va san'atkor tushunchalari haqida gapirib bering?

5 - amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: San'at turlari va ularning o`zaro aloqadorligi

Reja:

1. San'atning turlarga bo`linishi: turdosh san'atlar va janrlar.
2. San'at turlari.
3. San'at turlarining o`zaro aloqadorligi va nisbiy mustaqilligi.

1. Badiiy madaniyat murakkab tizimdan iborat ekanligi. San'at turlari san'atga xos bo`lgan umumiy belgilarga ega bo`lgan holda ularning har biri o`ziga xos muhim ko`rinishda namoyon bo`lishligi. San'at turlarida xususiyning umumiyga nisbatining ko`rinishligi. San'at turlari bir-birining o`rnini bosaolmasligi kabi masalalar orqali bu savol yoritiladi.

2. San'atning alohida turlari. Badiiy dabiyotning so`z orqali namoyon bo`lishi. Og`zaki va yozma adabiyotlar. Badiiy adabiyotning epik turi, dramaturgiya turlari haqida. Tasviriy san'at tizimiga musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm (grafika) kabi turlardan iborat ekanligi. Ifodali san'at turlari: bezakli-amaliy, me'morchilik va musiqa san'atlari haqida. Tomosha-qorishma san'at turi: teatr, ochiq sahna, sirk, kino, "oynai jahon" kabi turlari va ularning ta'rifidan kelib chiqib savol yoritiladi.

3. San'atning turlaridan kelib chiqqan holda har birining o`z xususiyatiga ega ekanligi, ularning bir-birini taqozo etishligi, shu bilan birga har biri nisbiy mustaqil ekanligidan kelib chiqqan holda savol mohiyati yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

San'atning qanday turlarini bilasiz? San'atning siz bilgan turlariga misollar ayting? San'at ahliga munosabatingiz qanday? Milliy san'atimiz haqida nima deya olasiz? Evropa san'atiga munosabatingiz?

6 - amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: Badiiy ijod jarayoni, badiiy asarni estetik idrok etish va estetik tarbiya

Reja:

1. Badiiy ijod jarayonining o`ziga xos xususiyatlari.
2. Badiiy ijod yo`nalishlari.

3. Estetik tarbiya va uning zamonaviy yo`nalishlari va vositalari.

1.San'at badiiy asarlar yig`indisi bo`lib, ularda voqelikni badiiy in'ikos etish badiiy uslub, badiiy usul, badiiy ijod qonuniyatlari asosida ro'y berishligi. Uslub tushunchasi, badiiy uslub va badiiy sullarning bog`liqliligi ekanligidan kelib chiqib savol yoritiladi.

2.Badiiy usul tarixiy mazmunga ega bo`lib, san'at turlarining badiiy ijod yo`nalishlari bilan bog`liq ekanligi. Badiiy ijodning klassitsizm yo`nalishi, ma'rifatchilik badiiy usuli, romantizm ijodiy usuli, tanqidiy realizm badiiy usuli kabi so`z va iboralar orqali yoritiladi.

3.Ta'lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham odamga va ijtimoiy guruhga qaratilganligi. Mustaqillik davrida estetik tarbiya ahamiyatining ortib borishi. Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jarayonini qamrab olishligi. Estetik tarbiya omillari. Estetik tarbiya vositalari va ularning ahamiyati to`g`risida fikrlardan kelib chiqib masala hal qilinadi.

Munozara uchun savollar:

Ijod deganda nima tushunasiz? Tarbiya nima? Tarbiyaning qanday turlarini bilasiz? Madaniyat nima? Madaniyatli odam deb qanday odamlarni aytamiz? Ilmiy ijod nima?

Estetika fanidan asosiy adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2001.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
3. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T., 1996.
4. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor" gazetasi., 2000, 8 iyun.
5. Umarov E. Estetika. T., 1995.
6. Гулыга А. Принципы эстетики. М., 1987.
7. Эстетика. Словарь. М., 1989.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika. T., 1980.
2. Ibn Sino. Salomon va Ibsol. T., 1980.
3. Navoiy. Majolis un-nafois. //Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 20 tomlik, 13-tom. T., 1998.
4. Fitrat. Adabiyot qoidalari. T., 1995.
5. Forobiy. Fozil shahar odamlari. T., 1990.

6. Xayyom. Navro`znoma. T., 1990.
7. Sher A. Diniy-badiiy asarning estetik mohiyati. "Guliston" jurnali, 2001 yil, 5-son.
8. Sher A. Ibrat ko`zi. "Sog`lom avlod uchun" jurnali, 1996 yil, 7-8, 9-10 sonlar.
9. Sher A. Tasavvuf, G`azzoliy va go`zallik falsafasi. "Sog`lom avlod uchun" jurnali, 2002 yil, 2-son.
10. Cho`lpon. Adabiyot nadir. T., 1994.
11. Безмоздин Л. В мире дизайна. Т., 1990.
12. Газали Абу Хамид. Воскрешение наук о вере. М., 1980.
13. Гегель Г. Эстетика в 4- томах. М., 1968-1973.
14. Кант И. Критика способности суждения. М., 1992.
15. Кант И. Наблюдения над чувством прекрасного и возвышенного. // Кант Сочинения в 6-томах, т-2. М., 1964.
16. Ницше Ф. Искусство и художник. // Ницше Ф. Сочинения в 2-х томах, т-1, М., 1990.
17. Ортега –и-Гассет Х. Дегуманизация искусства. М., 1991.
18. Шестаков В. Эстетические категории. М., 1983.
19. Шиллер Ф. Письма об эстетическом воспитании человека. // Ф.Шиллер. Сочинение в 7-томах, т-6. М., 1957.
20. Шопенгауэр А. Основные идеи эстетика. // Шопенгауэр А. Избранные произведения. М., 1992.
21. Фрейд З. Остроумие и его отношение к бессознательному. М., 1997.
22. Юнг К. Об отношении аналитической психологии к поэзии. // Юнг К. Сознание и бессознательное. С-Пб. – М., 1997.

Mantiq fanidan amaliy mashg`ulot

1 – amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: Mantiq ilmining predmeti va ahamiyati. Mantiq fani rivojlanishining asosiy bosqichlari

Reja:

1. Tafakkur mantiq ilmining o`rganish ob'ekti.
2. Mantiq fanining predmeti.
3. Qadimgi dunyoda mantiq ilmining shakllanishi.
4. O`rta asrlarda mantiq ilmi.
5. Yangi davrda (XVII-XIX asrlarda) mantiq ilmi taraqqiyotining asosiy yo`nalishi.

1.Mantiq atamasining ma'nosi va uning kelib chiqishi. Mantiq ilmining o`rganish ob'ektini tafakkur tashkil etishligi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichi ekanligi. Bilish va uning turlari. Hissiy bilishning uch shakli, ya'ni sezgi, idrok va tasavvurlar haqida tushuncha. Tafakkur bilishning yuqori bosqichi ekanligi. Tafakkurning xususiyatlari. Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog`lanish usuli, uning strukturasi ekanligi. Tafakkurning uch xil shaklda ya'ni tushuncha, hukm va xulosa chiqarish kabi tushunchalar va fikrlar orqali savol yoritiladi.

2.Mantiq keng ma'noda tafakkur shakllari va qonunlarini o`rganuvchi fan ekanligi. Mantiq to`g`ri tafakkur shakllari va qonunlarini o`rganuvchi falsafiy fan ekanligi. Muhokamani to`g`ri qurishga, formal ziddiyatlar, xatolarga yo`l qo`ymaslikka erishish o`ziga xos san'at, ya'ni mantiq san'ati ekanligidan kelib chiqib savol mohiyati ochiladi.

3.Mantiqqa oid dastlabki an'analar. Qadimgi Hindistonda mantiq ilmining rivojlanishi uch davrni, ya'ni 1-ilk budda mantig`i; 2-nyaya, vaysheshika maktablarining mantiqiy ta'limoti; 3-budda mantig`ining rivojlangan davri kabi bosqichlarni o`z ichiga olganligi. Qadimgi grek falsafasida mantiq masalalari. Demokrit, Sokrat, Platon, Aristotellar ta'limotida mantiq ilmi. Stoya maktabi vakillari Epikur va Skentitsizm ta'limotlarida mantiq ilmi kabi so`z va iboralar yordamida savol yoritiladi.

4.Qadimgi Gretsiyada shakllangan mantiq ilmining O`rta asrlarda mazmun bilan boyitilishi Yaqin va O`rta Sharqda mantiqiy ta'limotlarning

rivojlanishida samarali davr ekanligi. Sharqda birinchi bo`lib mantiq ilmi bilan shug`ullangan mutafakkir Al-Kindiy ta'limoti. O`rta Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiylarning mantiqqa oid fikrlaridan kelib chiqqan holda savol mazmuni ochiladi.

5.Mantiqiy ta'limotlarning Evropaga kirib kelishi. O`rta asr Evropasida mantiq masalalari asosan umumiy va yakka tushunchalarning o`zaro munosabati doirasida o`rganilishi. Yangi davr buyuk mutafakkirlari R.Dekart, F.Bekon, T.Gobbe, Leybnits va shu kabi boshqalarning mantiq ilmining turli yo`nalishlarini yaratganliklari haqida fikrlardan kelib chiqib savol mohiyati ochiladi.

Munozara uchun savollar:

Mantiq (logika) deganda nima tushunasiz? Dastlabki mantiqiy fikrlar qanday bo`lgan? Mantiq ilmining asoschisi kim? Bilish nima? Tafakkur haqidagi fikrlaringiz?

2 - amaliy mashg`ulot (2 soat)

Mavzu: Formal mantiqning asosiy qonunlari (tamoyillari)

Reja:

1. To`g`ri tafakkurning asosiy belgilari.
2. Ayniyat qonuni.
3. Nozidlik qonuni.
4. Uchinchisi mustasno qonuni.
5. Etarli asos qonuni.

1.Olamdagi narsa va hodisalar harakati o`ziga xos ichki qonunlar negizida yuzaga kelishligi. Mantiq ilmida qonun tushunchasi, fikrlash elementlari o`rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalashi. Mantiqiy tafakkur qonunlarining turlari, ya'ni dialektika va formal mantiq qonunlari. Qonunlar fikrlashning to`g`ri amalga oshishini ta'minlab turishi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan holi bo`lish va isbotlilik to`g`ri tafakkurlashning asosiy belgilari ekanliklaridan kelib chiqib savol yoritiladi.

2.Ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir paytda o`z-o`ziga teng ekanligi va uning formulasi, ya'ni "A-A" ekanligidan kelib chiqqan holda savol yoritiladi.

3.Bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki bir-birini istisno qiluvchi fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo`lishi mumkin emasligidan kelib chiqib misollar asosida savol yoritiladi.4.Ob'ektiv reallikdagi predmet, hodisalar o`rtasidagi farq va tafovut, ularning bir-biridan mustaqil holda mavjudligini bildirishligi. Tafovut reallikda turli shaklda uchraydi, bir-biriga zid

ikki holat, ya'ni bir-birini inkor etuvchi ikki imkoniyat shaklida mavjud bo'lsa, uchinchi holatning bo'lishi mumkin emasligi hamda "AV yoV" emasdir formulasidan kelib chiqib savol yoritiladi.

5. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerakligi va agar V mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjuddir formulasidan kelib chiqib savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Qonun nima? Mantiq qonunlari orqali nimalarni bilib oldingiz? Mantiq qonunlaridan kelib chiqib misollar keltiring? Aytgan misollaringiz qaysi qonunga to'g'ri keladi, formulasini yozib bera olasizmi?

3 - amaliy mashg'ulot (2 soat)

Mavzu: Tushuncha

Reja:

1. Tushuncha tafakkur shakli sifatida.
2. Tushunchaning mazmuni va hajmi.
3. Tushunchalarning turlari.
4. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar.
5. Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish.

1. Predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli nima ekanligi. Belgilar deb nimaga aytilishi. Belgilarning turlari, muhim va nomuhim belgilar. Taqqoslash orqali predmetlarning solishtirilishi. Tahlil, sintez, abstraktsiyalash, umumlashtirish kabi so'z va iboralardan foydalanib savol mazmuni ochiladi.

2. Tushunchaning mazmuni - unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari to'g'risida axborot tashkil etilganligi hamda fikr qilinayotgan predmetlar yig'indisini aks ettirgan tushuncha hajmi ekanligidan kelib chiqib savol yoritiladi.

3. Tushunchalarning mazmuni va hajmiga ko'ra turlarga bo'linishligi. Hajmiga ko'ra yakka va umumiy tushunchalar. Mazmuni bo'yicha esa nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarga bo'linishi va ularning ta'riflaridan kelib chiqib savol yoritiladi.

4. Ob'ektiv dunyodagi barcha predmet va hodisalar o'zaro aloqada bo'lganligi uchun ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o'zaro ma'lum bir aloqalarda, munosabatlarda mavjud ekanligidan, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalar, sig'ishadigan va sig'ishmaydigan tushunchalar qanday tushuncha ekanligidan kelib chiqib savol yoritiladi.

5. Tushunchalar ustida olib boriladigan amallar bu tushunchalarni chegaralash va umumlashtirishdir. Tushunchani chegaralashda hajmi keng

tushunchadan hajmi tor tushunchaga fikran o'tishdir. Tushunchani umumlashtirish esa buning aksinchasidir. Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish amallarining hayotimizda keng qo'llanilishidan kelib chiqib, foydalanib savolni yoritish mumkin.

Munozara uchun savollar:

Tushuncha deganda nima tushunasiz? Tushunchaga misollar ayting? Mazmun nima? Tushunchani chegaralashga misollar ayta olasizmi? Shu aytgan misollaringizni tushunchani umumlashtirishga aylantiring?

4 - amaliy mashg'ulot (2 soat)

Mavzu: Hukm (mulohaza)

Reja:

1. Hukm tafakkur shakli sifatida.
2. Oddiy hukm tarkibi.
3. Murakkab hukm, uning turlari.
4. Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar.

1. Predmetga ma'lum bir belgining xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shakli hukm ekanligi. Hukmning asosiy vazifalari. Hukmlar voqelikka mos kelish darajasi bo'yicha chin, xato, noaniq turlarga bo'linishligidan kelib chiqib savol yoritiladi.

2. Tarkibidan yana bir hukmni ajratib bo'lmaydigan hukm bu oddiy hukm ekanligi. Oddiy hukmlarning sifat va miqdor jihatidan turlarga bo'linishligi. Oddiy hukmlardagi terminlar hajmi. Predikatning mazmuniga ko'ra oddiy hukm oddiy hukm turlaridan kelib chiqib savol yoritiladi.

3. Hukm terminlari birdan ortiq bo'lsa murakkab hukm deyilishi. Murakkab hukmlarni bog'lovchi "va", "yoki", "agar", "unda" kabi mantiqiy bog'lamalar. Birlashtiruvchi hukmlar. Ayiruvchi hukmlar. Shartli hukmlar. Ekvivalentlik hukmlari. Hukmlarning inkor qilinishi kabi iboralar orqali savol yoritiladi.

4. Hukmlarning taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan turlari. Taqqoslanadigan hukmlarning sig'ishadigan va sig'ishmaydigan turlari. Hukmlarning modalligi kabi iboralar yordamida savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Hukm deb nimaga aytiladi? Hukmlarning turlari bo'yicha misollar ayting? Nima uchun hukmlar oddiy va murakkab turlarga bo'linadi?

5 - amaliy mashg'ulot (2 soat)

Mavzu: Xulosa chiqarish

Reja:

1. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.
2. Deduktiv xulosa chiqarish tushunchasi.
3. Sillogizmning aksiomasi va umumiy qoidalari.
4. Induktiv xulosa chiqarish tushunchasi.
5. To'liq induksiyaning xususiyatlari.
6. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning mohiyati.

1. Voqelikni bilish jarayonida insonning yangi bilimlarga ega bo'lishligi. Bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo'lgan tafakkur shakliga xulosa chiqarish deb atalishi. Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra turlarga bo'linishidan kelib chiqib savol yoritiladi.

2. Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati. Umumiy bilimdan juz'iy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy xususiyatiga egaligida. Bevosita xulosa chiqarish. Uning aylantirish, almashtirish, predikatga qarama-qarshi qo'yish, mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarish kabi mantiqiy usullari kabilardan kelib chiqib savol yoritiladi.

3. Sillogizm tushunchasi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalashi. Sillogizm aksiomasining mohiyati. Xulosa chin bo'lishi uchun ma'lum qoidalariga amal qilishning zarurligi va bu qoida sillogizmning umumiy qoidasi ekanligi. Sillogizmdagi katta, kichik va o'rta terminlarning mavjudligi kabi so'z va iboralar orqali savol yoritiladi.

4. Empirik umumlashtirish shaklida sodir bo'lib, unda birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanishini kuzatish asosida, shu belgining mazkur sinfga tegishli barcha predmetlarga xosligi haqidagi xulosa induktiv xulosa chiqarish ekanligi. Induktiv xulosa chiqarish kuzatish va tajriba natijalarini umumlashtirish bilan bog'liq ekanligi. Induktiv xulosa chiqarishning to'liq va to'liqsiz induksiyalarga bo'linishi kabi tushunchalar yordamida savol yoritiladi.

5. Birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub, har bir predmetga xosligini aniqlash asosida, shu belgining berilgan sinf predmetlari uchun umumiy belgi ekanligi haqida xulosa chiqarishning to'liq induksiya deyilishi. To'liq induksiyada muhokamaning qurilish shakli. To'liq induksiyaning asosiy xususiyatlari kabi iboralardan foydalanamiz.

6. Analogiya grekcha moslik, o'xshashlik degani. Analogiyada predmetlarning o'xshash xossalriga asoslangan holda xulosa chiqarilishi. Analogiyada bir predmetdan boshqa predmetga axborot o'tkazilishi. Analogiya o'zining ob'ektiv asosiga ega ekanligi kabi iboralar orqali savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Xulosa chiqarish deb nimaga aytiladi? Xulosa chiqarishning qanday turlarini bilasiz? Xulosa chiqarishga misollar ayting? Aytgan misollaringiz qaysi xulosa chiqarishga to'g'ri keladi? Aylantirish deganda nima tushunasiz?

6 - amaliy mashg'ulot (2 soat)

Mavzu: Dalillashning mantiqiy asoslari. Muammo. Faraz

Reja:

1. Dalillash ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni.
2. Isbotlash tushunchasi.
3. Rad etish tushunchasi.
4. Muammo va uning bilishdagi ahamiyati.
5. Gipoteza - bilimlarning mavjud bo'lish va taraqqiy etish shakli.
6. Nazariya - bilimlarning mantiqiy tizimi sifatida.

1.Mantiq ilmida isbotlash va dalillash tushunchalari. Biror fikr, mulohazani yoki mulohazalar tizimini voqelikka bevosita murojaat qilish yo'li bilan yoki chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar yordamida asoslab berish dalillash deb ta'riflanadi. Dalillashning bevosita yoki vositali turlari. Dalillashning xususiy ko'rinishi mantiqiy isbotlash ekanligi kabi iboralar orqali savol yoritiladi.

2.Bilish jarayonida natijalarning chinligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanishi isbotlashdir. Tezis - chinligi asoslanishi lozim bo'lgan hukm ekanligi. Argumentlar - tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukm ekanligi. Isbotlashning bevosita, bavosita turlari kabilardan kelib chiqqan holda savol mazmuni ochiladi.

3.Isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amal - raddiya ekanligi. Raddiyaning tezisni rad etish, argumentlarni rad etish, demonstratsiyani rad etish turlari. Tezisni rad etish usullari kabilardan kelib chiqib savol yoritiladi.

4.Muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvuflar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishidan vujudga kelishligi. Javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va echish usuli noma'lum bo'lgan savol muammo ekanligi. Muammolarni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va talanti muhim ahamiyatga ega ekanligi. Ilmiy muammoning vujudga kelishi. Muammoni echishdagi dastlabki tayyorgarlik ishlari kabi iboralardan kelib chiqib savol yoritiladi.

5.O'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzdagi bilim shakli gipoteza ekanligi. Gipotezalarni ilgari surishning asosiy mantiqiy vositalari. Gipotezaning chinligini asoslashning usullari. Gipotezaning umumiy va juz'iy turlari kabi iboralardan foydalaniladi.

6.Ma'lum bir predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, tushuntirish, oldindan

ko'rish imkonini beradigan ishonchli bilim nazariya ekanligi. Ilmiy nazariyaning tarkibiy qismlari. Ilmiy nazariyaning muhim vazifalari. Nazariyaning turlari kabi iboralardan kelib chiqib savol yoritiladi.

Munozara uchun savollar:

Dalillash va dalil keltirish nima? Isbotlash deganda nima tushunasiz va fikringizni qanday isbotlaysiz? Muammo deganda nima tushunasiz? Gipoteza sizning fikringizcha qanday? Nazariyaga misollar ayting?

Mantiq fanidan asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: miliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1-T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. -T.:O'zbekiston,1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.-T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4.-T.:O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi.T.5.-T.:O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. T.6.-T.: O'zbekiston,1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagamizni o'z qo'limiz bilan yaratamiz. T.7.-T.: O'zbekiston,1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8.-T.: O'zbekiston, 1999.
10. Войшвилло Е.К. Символическая логика: классическая и релевантная. –М.: Изд-во МГУ,1989.
11. Войшвилло Е.К. Понятие как форма мышления. –М.: изд-во МГУ, 1989.
12. Yoqubov T. Matematik logika elementlari.-T.: "O'qituvchi", 1983
13. Ивлев Ю.В. Логика. Учебник для вузов. –М.: «Логос», 1998.
14. Кондаков Н.И. Логический словарь-справочник. –М., 1976.
15. Курбатов В.И. Логика. Ростов-на-Дону. «Феникс», 1997.
- 16.Raximov I. Logikadan amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar. - T.: "O'zbekiston", 1988.
- 17.M.Xayrullaev, M. Haqberdiev. Mantiq.-T.: "O'qituvchi", 1993.
- 18.Sharipov M., Fayzixo'jaeva D. Mantiq. Ma'ruzalar matni. -T., 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Алексеев А.П. Аргументация. Познания. Общение.-М., 1991.
2. Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq, 1998.

3. Бочаров В.А. Аристотель и традиционная силлогистика. –М.,1984.
4. Al-Buxoriy. Hadis. I-IV tomlar.-Т.: Meros, 1990-1992.
5. Войшвилло Е.К. Понятие как форма мышления. –М., 1989.
6. Ивин А.А. Искусство правильно мыслить.-М.,1990.
7. Каримов Б.Р. Диалектика объективного и субъективного в методе восхождения от абстрактного к конкретному.-Т.: Фан,1988.
8. Логико-гносологические идеи мыслителей Средней Азии.-Т.: «Фан», 1981.
9. Логика и компьютер. Моделирование рассуждений и проверка правильности программ.-М.: Наука,1990.
10. Маковельский А.О.История логики.-М., 1967.
11. Маркин В.И. Силлогические теории в современной логике. –М., 1991.
12. Хайруллаев М. Uyg`onish davri va Sharq mutafakkirlari. -Т.: O`zbekiston, 1991.
13. O`zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. -Т.: O`zbekiston, 1995.
14. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. - Т., 1991.
15. Аль-Фараби. Логические трактаты. Алма –Ата, 1975.

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3.
2. Amaliy mashg'ulot. Axloqshunoslikning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari.....	5.
3. Amaliy mashg'ulot. Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari (qadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi davr).....	5.
4. Amaliy mashg'ulot. Turkiston ma'rifatchi - jadidlarining axloqiy qarashlari.....	7.
5. Amaliy mashg'ulot. Axloqning kelib chiqishi, ixtiyor erkinligi va axloq tuzilmasi.....	7.
6. Amaliy mashg'ulot. Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari.....	8.
7. Amaliy mashg'ulot. Axloqiy madaniyat va kasbiy odob. Shaxs axloqiy tarbiyasi.....	9.
8. Axloqshunoslik fanidan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar adabiyotlar.....	10.
9. Amaliy mashg'ulot. Estetikaning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari.....	11.
10. Amaliy mashg'ulot. Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari (qadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi davr).....	11.
11. Amaliy mashg'ulot. Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining estetik qarashlari. Estetik ong va estetik faoliyat.....	13.
12. Amaliy mashg'ulot. Estetikaning asosiy tushunchalari. San'atning kelib chiqishi va taraqqiyoti.....	13.
13. Amaliy mashg'ulot. San'at turlari va ularning o'zaro aloqadorligi.....	15.
14. Amaliy mashg'ulot. Badiiy ijod jarayoni, badiiy asarni estetik idrok etish va estetik tarbiya.....	15.
15. Estetika fanidan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar adabiyotlar.....	16.

16. Amaliy mashg'ulot. Mantiq ilmining predmeti va ahamiyati. Mantiq fani rivojlanishining asosiy bosqichlari.....	18.
17. Amaliy mashg'ulot. Formal mantiqning asosiy qonunlari (tamoyillari).....	19.
18. Amaliy mashg'ulot. Tushuncha.....	20.
19. Amaliy mashg'ulot. (mulohaza).....	21.
20. Amaliy mashg'ulot. chiqarish.....	21.
21. Amaliy mashg'ulot. Dalillashning mantiqiy asoslari. Muammo. Faraz. Nazariya.....	22.
22. Mantiq fanidan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar adabiyotlar.....	24.

